

YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLARGA BERILAYOTGAN IMTIYOZLAR VA ULARNING NATIJALARI

Jo'rayeva Iroda¹

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

KEYWORDS

Yangi O'zbekiston, ayollar huquqlari, gender tengligi, ijtimoiy imtiyozlar, davlat dasturlari, ayollar faolligi, qonunchilik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilikdagi o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar va amaliy dasturlar tahlil qilinadi. Ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlarning jamiyatdagi o'rni, ularning iqtisodiyot, siyosat, ta'lim va tadbirkorlikdagi faolligiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, bu imtiyozlarning samaradorligi, mavjud muammolar va istiqbolli takliflar haqida fikr yuritiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15333850**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – jamiyatda gender tenglikni ta'minlash va ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil siyosatdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlik sohalarida teng huquqli ishtirokini ta'minlash maqsadida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Prezident tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan "Ayollar daftari", imtiyozli kreditlar, ta'limga oid yengilliklar, mehnat munosabatlaridagi ijtimoiy kafolatlar ayollarning hayot sifati va o'zini anglash darajasini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan va tadbirkorlik sohalarida ham faol ishtirok etmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollar uchun yaratilgan imtiyozlar, ularning mazmuni, amaliy natijalari hamda mavjud muammolar va istiqbolli takliflar atroflicha tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash va ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu boradagi muhim huquqiy asoslar sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar

¹ O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar asosida ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli imtiyoz va imkoniyatlar tizimi shakllantirilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlar quyidagi asosiy imtiyozlar bilan ta'minlanmoqda:

- Tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kredit olish imkoniyati
- "Ayollar daftari"ga kiritilganlarga 5 million so'mgacha naqd kredit ajratilishi
- Kasb-hunar o'rganish xarajatlarini davlat hisobidan qoplash
- Oliy ta'lim kontrakti uchun to'lovni davlat zimmasiga olish (ayrim toifadagi ayollar uchun)
- 7 yil muddatga foizsiz ta'lim krediti ajratilishi
- OTMga kirishda tavsiyanomalar berilishi va stajga ega bo'lganlarga imtiyozli qabul
- Rahbarlik lavozimlari uchun tanlovlarda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta'minlash
- 53 yoshda pensiyaga chiqish imkoniyati (ayrim toifadagi ayollar uchun)
- 12 yoshgacha bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til berilishi
- 2 yoshgacha bolasi bor ayollarni yengil mehnatga o'tkazish
- Homilador yoki 3 yoshgacha bolasi bor ayollarni ishga olishda sinov muddatisiz qabul qilish
- Pensiya yoshiga yetgan ayollarni ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatishni taqiqlash
- "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan faol ayollarni rag'batlantirish
- Yolg'iz onalarning bolalarini bog'chaga imtiyozli qabul qilish
- Ijtimoiy muammolari bor ayollarni uy-joy bilan ta'minlash
- Nogironligi bo'lgan ayollarni ishga olgan tadbirkorlarga subsidiya berish

Ushbu imtiyozlar ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishlari, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Quyida ushbu imtiyozlar turkumini ijtimoiy-iqtisodiy, mehnat-huquqiy, ta'lim, va ijtimoiy rag'batlantirish yo'nalishlari bo'yicha bosqichma-bosqich tahlil qilib chiqamiz.

Yangi O'zbekistonda ayollarni iqtisodiy jihatdan faollashtirish, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish va oilaviy daromadni barqarorlashtirish yo'lida muhim choralar ko'rilmogda. Ayniqsa, xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar diqqatga sazovordir.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan yillik 14 foiz stavkada, 3 yilgacha muddatga va 6 oygacha imtiyozli davr bilan 33 million so'mgacha kreditlar ajratilmoqda. Biroq ushbu imtiyoz har qanday ayolga emas, balki belgilangan malaka kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan, tadbirkorlik bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmaga ega bo'lganlarga beriladi. Ular quyidagi muassasalarning maxsus o'quv dasturlarini yakunlagan bo'lishi kerak: Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma'qullangan dasturlar asosidagi o'quv kurslari; «Ishga marhamat» monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o'qitish

maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta'lim muassasalarining kasbga o'rgatish o'quv kurslarining maxsus o'qitish dasturlari.

Bu yondashuv, bir tomondan, ayollarning bilimli va tayyor tadbirkor sifatida faoliyat boshlashini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, davlat resurslaridan maqsadli foydalanishni kafolatlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kreditlarni olgan xotin-qizlarning aksariyati xizmat ko'rsatish, tikuvchilik, go'zallik saloni, qandolatchilik kabi sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Mazkur imtiyoz nafaqat ayollarni tadbirkorlikka jalb qilishga, balki ularning oilaviy va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga, yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu imkoniyatdan to'laqonli foydalanish uchun targ'ibot ishlarini kuchaytirish, ayollarni huquqiy va moliyaviy savodxonlikka o'rgatish ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash yo'lida yana bir samarali mexanizm sifatida "Ayollar daftari" orqali ajratiladigan 5 million so'mgacha bo'lgan naqd kreditlar alohida o'rin tutadi. Bu kreditlar ayollarni bevosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni o'z hayotini yaxshilashga undash maqsadida joriy etilgan.

Mazkur kreditlar "Ayollar daftari"ga kiritilgan 30 yoshdan oshgan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu ro'yxatga quyidagilar kiritiladi: ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar; tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar; boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar; ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar; uy-joyga muhtoj xotin-qizlar; qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandlari bor ehtiyojmand xotin-qizlar.

Mazkur dastur ikki muhim maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, real ehtiyojmandlik mezonlari asosida ayollarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ikkinchidan esa, ularning mehnatga layoqatli qismini tadbirkorlikka jalb etish.

Amaliyotda bu kreditlar ko'pincha kichik hajmdagi xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlash, zarur asbob-uskunalar yoki materiallar xarid qilish, oilaviy byudjetni tiklash maqsadida ishlatilmoqda. Bu esa ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, o'z kuchi bilan daromad topishga bo'lgan ishonchini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, bu mexanizmning barqaror ishlashi uchun mahallalardagi "Ayollar daftari"ni yuritish tizimini yanada shaffof va adolatli qilish, mablag'lardan maqsadli foydalanilishini monitoring qilish zarurligi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kasb-hunar o'rganish xarajatlarini davlat tomonidan to'lash mexanizmi xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi va mehnat bozoridagi faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, xotin-qizlar nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga yoki tadbirkorlikka o'qish uchun qilgan xarajatlarining 70 foizi davlat tomonidan to'lab beriladi, ammo har bir bitiruvchiga to'lanadigan umumiy summa 1 million so'mdan oshmasligi kerak.

Bu imkoniyat, ayniqsa, kasb-hunar o'rganishga imkoniyati cheklangan va iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda bo'lgan ayollar uchun qulaydir. Ular o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish, yangi kasbni o'rganish orqali ish topish imkoniyatini yaratib, oilaviy daromadni

barqarorlashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda ayollar uchun yaratilgan imtiyozlar va imkoniyatlar umumiy holda juda ijobiy natijalar berayotganiga qaramay, ba'zi amaliy muammolar ham mavjud. Eng muhim muammolardan biri – resurslardan notog'ri foydalanish va imtiyozlar tizimining samaradorligini kuzatishdagi qiyinchiliklar. Masalan, "Ayollar daftari"ga kiritilganlarga ajratiladigan kreditlar va grantlar faqat o'rnatilgan talablarga javob beradiganlar uchun mo'ljallangan, lekin ayrim hollarda ushbu resurslar to'liq maqsadli auditoriyaga yetib bormayapti. Bu esa imtiyozlardan faqat ayrim guruhlar foydalanib, ehtiyojmand ayollarni yanada qiyin vaziyatga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, tadbirkorlik va kasb-hunar o'rgatish dasturlarining samaradorligi ham muammoli bo'lishi mumkin. Ko'plab ayollar uchun ushbu kurslar va ta'lim dasturlari hali ham yetarlicha ma'lumotli yoki amaliyoti ta'minlanmagan, bu esa ularning o'rgangan bilimlarini to'g'ri ishlatishga qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, ba'zi ayollar o'zlarini imkoniyatdan to'liq foydalanishga tayyor his qilmasliklari mumkin, chunki ular moliyaviy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar uchun yaratilgan imtiyozlar ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga katta yordam bermoqda. Ular tadbirkorlikni rivojlantirish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish, o'z biznesini boshlash imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Shuningdek, ko'plab yangi dasturlar, xususan, "Ayollar daftari" orqali taqdim etilayotgan kreditlar va grantlar, ularning iqtisodiy mustaqilliklarini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Biroq, mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun tizimning shaffofligini, resurslardan maqsadli foydalanishni va ushbu dasturlarni amalga oshirayotgan tashkilotlarning sifatini yanada yaxshilash zarur. Shuningdek, ko'proq ayollarni bu imkoniyatlardan foydalanishga jalb qilish, ularni huquqiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha targ'ibot ishlari amalga oshirilishi lozim. Faqat shundagina ushbu imtiyozlar jamiyatda kengroq ta'sir ko'rsatadi va ayollarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/5045889>
2. <https://lex.uz/docs/5320582>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/08/women/>
4. Gender munosabatlari: nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to'plami. - T.: O'zRX-QQ, BMTRD, SHO'EGD, 2007.-B.
5. Saidov A. So'z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro-huquqiy asoslar. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021. – 113 b.